



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buguk
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 6-yanvar, № 4 (8627)

Shanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini
telefoningiz orqali skaner qiling.



14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni

MAMLAKATIMIZ BARQARORLIGI VA TARAQQIYOTINING MUSTAHHAM KAFOLATI

Vatan himoyasi barcha uchun muqaddas burch sanaladi. Uni ado etishni sharafli kasb deb bilgan milliy armiyamiz, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ta'minlash yo'lidagi salmoqli ishlar qilinayotir. Amalga oshirilayotgan ishlarni munosib baholash hamda yurtimiz himoyachilariga zarur shart-sharoit yaratish davlatimiz siyosatining ustuvor vazifalaridandir.

Yangi yilning ilk kunlarida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida mudofaa qurilishi va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini rivojlantirish masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishda qo'shinlarning jangovar shayligi, jangovar qobiliyatini yanada oshirish, ularni zamonaviy qurol-yarog' va harbiy texnika bilan ta'minlash, mavjud qurol-yarog' namunalari modernizatsiyalash, shuningdek, harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari va Qurolli Kuchlar faxriylarini ijtimoiy himoya qilish masalalari muhokama etildi.



8-yanvar — O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari xodimlari kuni

AHOLI MANFAATLARINI TA'MINLASH — ASOSIY VAZIFAMIZ

Bugun mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoya qilish, yangi ish o'rinlari yaratish orqali fuqarolar bandligini ta'minlash, iqtisodiyotni erkinlashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bu jarayonda Qashqadaryo viloyati prokuraturasi nafaqat jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlovchi idora, qolaversa, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga mas'ul sektorlardan biri sifatida faoliyat olib boryapti.

Aytish joizki, viloyatdagi 197 ta mahalla 2-sektor, ya'ni prokuraturaga birlashtirilgan. Ushbu mahallalarda 869 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladi. Albatta, bu hududlarda ijtimoiy infratuzilma, kommunal xizmat, oila, aholi vakillarida esa ijtimoiy himoya, bandlik masalalari bilan bog'liq muammolar yo'q emas.

Ayni paytda prokuratura idoralari tomonidan sektor hududidagi mahallalar, oilalarda mavjud muammolar o'rganilib, ularni tizimli hal etish bo'yicha amaliy ishlar olib borilayotir.

Xususan, o'tgan yil davomida sektor hududidagi 4 ming 58 nafar ehtiyojmand oilaga homiylik mablag'lari hisobidan moddiy yordam ko'rsatildi. O'nlab ehtiyojmand xotin-qizlarning uy-joylari ta'mirlab berildi. Nogironligi bor bolalar

chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, 311 nafariga davolanish uchun imtiyozli order berildi. Tug'ma yurak nuqsoni bo'lgan 83 nafar bolada Milliy tibbiyot markazida, 67 nafarida esa davlat yoki xususiy shifoxonalarda kardiologiya amaliyotlari o'tkazildi. Yana ko'plab bolalarga voyaga yetgunga qadar nogironlik nafaqasi tayinlanishi ta'minlandi.

Ma'lumki, hududlarda ishsizlik bilan bog'liq muammolarni hal etishdagi eng maqbul yechim tadbirkorlikni rivojlantirish, qolaversa, ishsiz aholining o'zini o'zi band qilishiga ko'maklashish hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda Qashqadaryo viloyati prokuraturasi tomonidan ham bu borada tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Senator va hayot

YALPI MAJLISDA KO'TARILGAN MASALA QANDAY HAL ETILMOQDA?

Sir emas, oxirgi yillarda boshqa sohalarda bo'lgani singari Oliy Majlis Senati faoliyatini kuchaytirish yo'nalishida ham keng ko'lami ishlar amalga oshirildi. Pirovard natijada parlament yuqori palatasi ish jarayoni tubdan yangilandi. Bugun Senat a'zolari aholini qiynab kelayotgan muammoli masalalarni aniqlash va ular yechimiga ko'maklashish borasida ham faollik ko'rsatib kelayotir. Buni yalpi majlislarda senatorlar tomonidan ko'tarilgan muammolar tegishli vazirlik va idoralar ishtirokida hal etilayotgani, ungacha esa ushbu masalalar qo'mitalarning doimiy nazoratida bo'lib kelayotgani misolida ham kuzatish mumkin.

Yodingizda bo'lsa, Oliy Majlis Senatining yaqinda bo'lib o'tgan qirq sakkizinchi yalpi majlisida poytaxtimizdagi yo'llar ustida bunyod etilgan piyodalar o'tish yo'riklaridagi eskalator va liftlar ishlamasligi yoshi katta insonlar, nogironligi bo'lgan shaxslar va yosh bolalar ayollarga noqulaylik tug'dirayotgani, shu kabi

qurilmalar risoladagidek ishlashini ta'minlash choralari ko'rilishi lozimligi masalasi ko'tarilgan edi. Ayni chog'da bu masalalar Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi o'z nazoratiga olishi va mas'ullar bilan birga ishlab, uni hal etish choralarini ko'rish kerakligi ham belgilangandi.



"O'ZBEKISTON VA GRUZIYA MUNOSABATLARI HAMISHA DO'STONA BO'LGAN"



So'nggi yillarda O'zbekistonning Kavkazorti mintaqasidagi Gruziya bilan munosabatlari sezilarli mustahkamlandi. Mamlakatlarimiz savdo-iqtisodiy, transport, madaniy-gumanitar, turizm sohalarda o'zaro hamkorlik qilmoqda. Gruziyaning O'zbekistondagi muvaqqat ishlar vakili Georgiy Chxeidze "Xalq so'zi" gazetasi muxbiriga bergan intervyusida 2024-yilda O'zbekiston va Gruziya munosabatlaridagi rejalar haqida o'z fikrini bildirdi.

Bizning intervyu

— Gruziya va O'zbekistonning munosabatlari hamisha do'stona va sheriklikka asoslangan, hamkorlik esa o'zaro hurmat tamoyillari ustiga qurilgan. Biz mamlakat rahbariyatining, qolaversa, butun o'zbek xalqining Gruziya suvereniteti va hududiy yaxlitligiga nisbatan qo'llovini yuqori baholaymiz.

Gruziyada O'zbekistonning do'st xalqiga, mamlakatining boy madaniyati, tarixi va an'analari alohida hurmat bilan yondashiladi.

Shuni alohida mamnuniyat bilan ta'kidlamochimanki, oxirgi vaqtlarda ikki tomonlama hamkorlik sifat jihatdan yangi bosqichga chiqdi. Mamlakatlarimiz o'rtasidagi o'zaro tovar aylanmasining keskin oshishi ham shundan dalolatdir. Bugungi kunda o'sish tendensiyasi saqlanib qolayotgani birgalikdagi manfaatli ishlarni yanada chuqurlashtirish uchun katta salohiyat mavjudligi borasida gapirishga imkon beradi.

2022-2023-yillarda Bosh vazirlar darajasidagi tashriflar almashinuvi, o'tgan yili Bosh vazir o'rinbosarlari rutbasida Hukumatlararo komissiyaning iqtisodiy masalalar bo'yicha navbatdagi yig'ilishi turli sohalarda Gruziya va O'zbekiston hamkorligini faollashtirish va muvaffaqiyatli rivojlantirishda muhim rol o'ynadi. Mamlakatlarimiz Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida, vazir o'rinbosarlari darajasida o'tgan yilning dekabrda Tbilisida o'tkazilgan maslahatlashuvlar davomida munosabatlarimiz natijalari sarhisob qilindi, sheriklikni yanada chuqurlashtirishga ko'maklashishga qaratilgan navbatdagi qadamlar kelishib olandi.

Vazirliklar va muassasalar o'rtasidagi hamkorlik gorizontal darajada faollashtirilgan alohida ta'kidlamochimanki, xususan, ijroiya hokimiyat vakillarining amaliy tashriflari buning yaqqol isbotidir.

Aytish joizki, 2024-yil o'zaro munosabatlarimizda yubiley yili bo'ladi. Ya'ni diplomatik aloqalar o'rnatilganining 30 yilligini nishonlaymiz. Shu bois Gruziya va O'zbekistonda madaniyat sohasida qator tadbirlarni o'tkazish rejalashtirilgan.



Qonunchilik palatasi qo'mitalarida

DORI VOSITALARI SIFATLI VA XAVFSIZ BO'LISHI ZARUR

Yurtimizda dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikalar muomalasi tizimini yaxshilash, aholi va tibbiyot muassasalarining arzon va sifatli dori-darmon vositalari hamda tibbiyot buyumlari bilan ta'minlanganlik darajasini yanada oshirish borasida keng qamrovli ishlar olib borilayotir. Shuningdek, mamlakatimizda mahalliy farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish uchun barcha qulaylik yaratilib, sohadagi qonunchilik bazasi bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Fuqarolarning sog'lig'ini saqlash masalalari qo'mitasi tomonidan "Aholini sifatli va xavfsiz dori

vositlari bilan ta'minlash — davr talabi" mavzuida tashkil etilgan seminar shu xususda so'z yuritildi.



"SEHRLI DIYOR" Dagi UNUTILMAS MULOQOTLAR

Iqtisodiyotning bugungi rivojlanish bosqichida oliy ta'lim tizimi oldida yoshlarni nafaqat mamlakatimiz, balki xalqaro mehnat bozorida ham talab yuqori bo'lgan kasblarga malakali kadr sifatida tayyorlash vazifasi turibdi. Shu nuqtayi nazardan, Yevropa davlatlari, AQSH va boshqa rivojlangan mamlakatlar bilan kadrlar tayyorlash borasida hamkorlikning yangi strategiyalarini hayotga tatbiq etish dolzarbdir.

Biz va jahon

Xalqaro Nordik universiteti jamoasi bu borada ko'plab ishlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, xalqaro tajribalarni o'rganish, ta'lim, tadqiqot va tadbirkorlikka asoslangan, ya'ni 4.0 formatdagi universitetlar faoliyati bilan tanishish, o'zaro tajriba almashish, istiqbolli qo'shma dasturlarni birgalikda yo'lga qo'yish maqsadida jahonning mutaraqqiy davlatlariga safarlar uyushtiraypti.

Ana shu ezgu niyat yo'lidagi navbatdagi safarimiz ta'lim yuksak darajada rivojlangan, Nobel

mukofotining eng ko'p sovrindorlari yurti, ilg'or o'quv dasturlari, dunyo inqiyosidagi tadqiqotlarga asoslangan innovatsiyalari bilan ajralib turuvchi Amerika Qo'shma Shtatlariga bo'ldi.

O'qish uchun qulay muhit

O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripovning "Amerika — sehrli diyor" degan misrasi yoshligimizdan shuurimizga singgan. Bu o'lkaga kelib ko'rdikki, atoqli shoirimizning talqini

mamlakatning suratu siyratiga juda mos tushadi.

Safar davomida AQSH o'quv tizimi bilan yaqindan tanishdik. So'nggi o'n yilda sohada qo'lga kiritilgan yutuqlar, mavjud muammolar va ularning yechimi borasidagi izlanishlar, universitetlarning mamlakat iqtisodiyoti va jamiyat ravnagidagi muhim o'rniga doir ma'lumotlarga ega bo'ldik.

175 dan ortiq mamlakatlarda AQSHning 430 dan ko'p xalqaro talabalar maslahat markazlari mavjud. Ular akkreditatsiyadan o'tgan oliyog'ohlarda o'qish imkoniyatlari haqida aniq va to'liq ma'lumotlarni taqdim etish orqali butun dunyodan, jumladan, yurtimizdan yoshlarni AQSHda ta'lim olishga jalb qilmoqda.

O'zbekiston — AQSH munosabatlari izchil rivojlanib bormoqda. O'tgan yili sentyabr oyida Prezidentimizning ushbu mamlakatga amaliy tashrifi o'zaro hamkorlikni yangi bosqichga ko'tardi. Deyarli barcha jabhada o'zaro aloqalarni yanada kengaytirish bo'yicha kelishuvlar imzolandi.

Amaliy tashrif doirasida Prezidentimiz AQSHda yashayotgan va ishlayotgan bir guruh vatandoshlarimiz hamda ushbu mamlakatning yetakchi oliy ta'lim dargohlarida tahsil olayotgan "El-yurt umidi" jamg'armasi stipendiatlari bilan uchrashdi. Ochiq va jonli muloqot shaklida o'tgan tadbirda davlatimiz rahbari Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida so'zlab berdi. Jahonning yetakchi universitetlarida tahsil olayotgan vatandoshlarimizda mamlakatimiz taraqqiyotiga ko'maklashish uchun ulkan salohiyat borligini ta'kidladi.

Darhaqiqat, AQSH va O'zbekiston hamkorligining istiqbolli yo'nalishlaridan biri, shubhasiz, ta'lim tizimi bilan bog'liq. 2018-yil 4-oktyabrda har ikki mamlakat ta'lim vazirlarining ilk marotaba uchrashuvi amalga oshirilgan. E'tiborlisi, yurtimiz taraqqiyoti, hayotimiz farovonligini ta'minlovchi ushbu dolzarb sohada aloqalar

yildan-yilga kengayib bormoqda. O'tgan yil 18-oktyabrda O'zbekiston Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamkorligida Toshkentda "EducationUSA" mintaqaviy forumi o'tkazildi. Markaziy Osiyoda ilk bor poytaxtimizda tashkil etilgan forumda AQSHning 50 dan ortiq universitetlari vakillari o'zbekistonlik talabalar va mintaqadagi oliy ta'lim bo'yicha maslahatchilar bilan uchrashdi. Forum orqali minglab yoshlarimiz AQSH ta'limi xususida keng ma'lumotga ega bo'ldi.

Umuman, okeanortida ta'lim olish uchun qulay muhit yaratilgan. O'quvchi va talabalarning sifatli bilim olishi uchun davlat tomonidan katta mablag' ajratiladi. Xususan, so'nggi o'n yildagi ko'rsatkichlarga nazar solsak, boshlang'ich, o'rta va oliy ta'limda har bir o'quvchiga to'g'ri keladigan xarajatlar iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ga a'zo boshqa mamlakatlarga qaraganda ancha ustunligini ko'rish mumkin.



